

**BADIIY MATNLARDA KO‘CHIMLARNING LINGVISTIK  
XUSUSIYATLARI  
(CHORI AVAZ SHE‘RLARI MISOLIDA)**

**Amonova Mavluda Raximjon qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari  
tillari va madaniyati instituti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada badiiy matnlarda, xususan, she‘riyatda ko‘chimlarning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari haqida atroflicha fikr-mulohazalar yuritiladi. Ko‘chimlardan samarali va o‘rinli foydalanish ijodkorning voqelikka bo‘lgan munosabatini yanada yorqinroq hamda ta‘sirchanroq ifodalab berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zining salmoqli ijod namunalari bilan o‘zbek she‘riyatida o‘chmas iz qoldirgan shoir Chori Avaz she‘rlarida ham ko‘chimning bir necha xil ko‘rinishlari tahlilga tortiladi. Ular ifodalab kelayotgan mazmunning tub mohiyatini topish tadqiqotimizning asosini tashkil etadi.*

**Kalit so‘zlar:** *ko‘chim, metafora, metonimiya, sinekdoxa, parafraza, mubolag‘a, kichraytirish.*

**Kirish**

Bugungi globalashuv jarayonida dunyodagi har qaysi mustaqil davlat o‘zining milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada eng avvalo o‘z madaniyatini, qadriyatlarini hamda ona tilini asrab-avaylash va yanada rivojlantirish masalasiga yuqori ahamiyat qaratishi tabiiydir. Bunda tilning ichki imkoniyatlarini kengaytirish, tildan foydalanishda ko‘zda tutilgan asosiy maqsadga erishish, uni ommaga tushunarli tarzda yetkazish kabi bir qancha masalalar tilshunoslikning ayrim tarmoqlarida o‘rganish obyekti sifatida qaralishi ma‘lum. Badiiy asarning lingvopoetik tahlili tilning nazariy jihatlari, ijtimoiy funksiyalari hamda inson ma‘naviyatining in‘ikosi ekanligini to‘laqonli tasavvur etishimizga imkoniyat yaratadi. Lingvopoetik tahlil jarayoni faqatgina yozuvchining tili va uslubi haqida ma‘lumot berish bilan chegaralanib qolmay, ijodkorning so‘z boyligi, til vositalaridan foydalanish mahorati, badiiy tasvir vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman, tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo‘ladi.

Ko‘chimlarga tilshunoslar Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. hammuallifligida yozilgan “O‘zbek tili stilistikasi” nomli asarida shunday ta‘rif beriladi: “adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma‘noda ishlatilishi”. So‘z ma‘nosining ko‘chish jarayonlari turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlar hamda ularning hosilalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, ularning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar tilshunosligimizda ancha batafsil o‘rganilgan. Ko‘chimlar ko‘pchilik adabiyotlarda “troplar” nomi ostida o‘rganilgan. “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” qo‘llanmasida ko‘chimlar quyidagicha tasniflanadi: “1.So‘z

ma’nosining miqdoriy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis. 2. So‘z ma’nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; d) ironiya”. Qolgan tasviriy vositalar mazkur ko‘chimlarning ko‘rinishi sifatida beriladi: “simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota – meyozisning ko‘rinishlaridir”. Badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan tahlilga tortganda, ko‘chimlar deb ataluvchi tasviriy vositalarning deyarli barchasining tub asosida o‘xshatish, chog‘ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmazlik lozim.

### Asosiy qism

So‘z ma’nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan ko‘chimning tarkibiy unsurlaridan biri metaforadir. Metaforaning nutqni obrazli ifodalashdagi ahamiyati juda kata. U qanchalik tabiiyligini saqlasa, shunchalik mag‘zi ham butun bo‘ladi.

She’riyatda metaforalar juda kam hollarda bir so‘z yoki bir jumladan iborat bo‘ladi. Ko‘p hollarda metaforalar murakkab shaklda ifodalanadi. Bir nechta obraz yoki metaforik holatlarning bitta metafora orqali namoyon bo‘lishi uning ifodaviyligini yana-da oshiradi. Qo‘ng‘urov R. metaforalarni tuzilishiga ko‘ra ikki guruhga ajratadi:

1. Sodda metaforalar.
2. Kengaygan metaforalar.

Metafora haqidagi ushbu bo‘linish tilshunoslikda boshqa olimlar tomonidan ham xuddi shu tarzda guruhlarga ajratilgan. Umurqulov B. metaforaning bu ikki turini quyidagicha ta’riflaydi: “Sodda metafora shaklan bir so‘zdan; kengaygan metafora birdan ortiq so‘zdan iborat”. Shu o‘rinda kengaygan metaforaga alohida ta’rif ham berib o‘tadi: “Kengaygan metaforalarning xarakterli xususiyati shundaki, so‘z metafora o‘zi bog‘lanib kelayotgan so‘z bilan mustahkan aloqaga kirishishi natijasida metaforik ma’no ifodalaydi”. She’riyatda kengaygan metaforalar ba’zan jumlalar, ba’zan satrlar, ba’zi hollarda esa bir nechta satrlarni ham qamrab olishi mumkin. Shuning uchun ko‘pchilik ijodkorlar bir nechta sodda metaforalarni birlashtirish natijasida bitta kengaygan metaforani yuzaga chiqaradi.

Chori Avazning “Tortilgan kamon” kitobidan joy olgan bir she’rida lirik qahramonning yurakka xitobi bir nechta metaforalar orqali bitta umumiy mazmun ifodalayotganini ko‘rishimiz mumkin:

Men qo‘rqaman, seni gohida  
Aldab qo‘yar shudring tomchisi.

Parchada keltirilgan “shudring tomchisi” – vafosiz yor demakdir. Shudringning tong pallasida o‘simliklarning yaproqlari yuzasida go‘zal bir holatda paydo bo‘lib, quyosh nuri ta’sirida yana havoga bug‘lanib uchib ketishi vafosiz yorning ma’lum muddat yurakdan o‘rin egallab, boshqa birovning tashqi ta’siri natijasida birdaniga yo‘qolib qolishi ma’nosidagi metaforani yuzaga chiqargan.

Yetar, tinch qo‘y qizil gullarni,  
Go‘zal bo‘lsa aybdormi axir.  
Qizil gular she’ringni emas,  
Yomg‘irlarni kutayotgandir.

Bu o‘rinda “qizil gullar” metaforik birikmasi orqali shoir “go‘zal qizlar”ni nazarda tutmoqda. Ya’ni ijodkor yurakka doim qizil gullar – go‘zal qizlarga nazar solavermasligini uqtirib, balki ularning oddiygina she’rga qoniqmasdan doim yog‘ib turguvchi yomg‘irni kutayotgan bo‘lishi mumkinligi haqida ogohlantirish bermoqda.

Bilasan-ku yashash naqadar

Qizil rangli gullarga og‘ir.

She’ning yakunlovchi qismida yurakka shoir tomonidan qizil gullar – go‘zal qizlarga bu hayotda yashash bir muncha og‘ir bo‘lishi haqida tushuntirish berilyapti. Chunki azaldan boshqa rangdagi gullarga nisbatan qizil rangli gular eng chiroylisi deb topilgan va uning haridori ham talaygina. Shuning uchun go‘zal qizlarning ham hayotda ko‘p haridori bo‘lishi va buning natijasida ular hayotning turli sinovlariga duch kelishi mumkinligi metaforik birikmalar orqali mahorat bilan tasvirlangan.

Badiiy asar tilida metonimiyaning o‘ziga xos ahamiyati bor. Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlik va bog‘liqlik asosida ma’no ko‘chishiga aytilishi ma’lum. Metonimiyani ham qiyoslashga asoslangan ko‘chimning turlaridan biri ekanligi haqida olimlarning quyidagi fikrlari o‘rinlidir: “metaforada bir-biriga o‘xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko‘rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqador bo‘lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o‘xshamagan) predmetlarning belgilari chog‘ishtiriladi” .

Quyida shoir Chori Avazning “Zeboga” nomli she’rida metonimiyaning yorqin namunasini ko‘rishimiz mumkin:

U miskin xotira huda-behuda

Meni o‘z bag‘riga oladi tortib.

Sen paydo bo‘lasan mitti jussang-la

O‘n olti kiloni yelkangga ortib.

Paxtazor yomg‘iru qordan ko‘pchigan,

Chaqirim uzoqda tuyular har joy.

Sen-chi, ketayapsan kuchsiz yelkangda

O‘n olti kiloyu etik dahsar loy.

Men o‘qiy boshlayman sening ortingda

Loyga botib qolgan og‘ir izlarni.

Sen-chi ma’yusgina xirmonga to‘kding

O‘n olti kiloyu zilday xislarni.

Shoirning ushbu she’rida qo‘llanilgan “o‘n olti kiloni”, “o‘n olti kiloyu” birliklaridan “o‘n olti kilo paxtani(-yu)” ma’nosini ifodalashda foydalanilgan.

“Kuz ertasi” nomli she’riy kitobidan o‘rin olgan “Cho‘l” she’ridan keltirilgan parchada ham metonimiyadan samarali foydalanilgan:

Mana cho‘l. Jimgina kuzatib qolar

Insonning temir iz kemalarini,

Tuyalarga quvnab qo‘l silkiyotgan

Bolalar – dunyoning egalarini.

Shoir “temir iz kemalar” deb poyezdlarni qayta nomlamoqda.

\* \* \*

Tun kichadi. Ufq ortidan

Bir parivash tong otar oppoq.

Podalarni qirga haydaydi

Ko‘zlarini uqalab qishloq.

Bu misralarda qishloq ahli, ya’ni odamlarni nazarda tutgan holda “qishloq” so‘zidan qayta nomlashda foydalanilgan. Chori Avaz ijodida bunday birliklarni ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Sinekdoxa butun hamda bo‘lakning munosabati asosida yuzaga chiquvchi ma’no ko‘chishining bir turi hisoblanadi. Boboyev T., va Boboyeva Z. hammuallifligida yozilgan “Badiiy san’atlar” kitobida sinekdoxani “ko‘plik o‘rnida birlik yoxud birlik o‘rnida ko‘plik shakllarini qo‘llash bilan ham sinekdoxalar yaratish mumkin” deb ta’riflab o‘tadi.

Parafraza (ayrim adabiyotlarda perifraz, perifraza) tasviriy ifodasi ham badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi muhim uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Unga adabiyotlarda quyidagicha izoh beriladi: “narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash”. Ammo har qanday narsa-hodisani boshqa nom (ibora) bilan atayverish har doim ham kutilgan natijani beravermasligini unutmaslik kerak. Ayni bir hodisa va uni ifodalayotgan birikma o‘rtasida, albatta, mazmuniy yaqinlik bo‘lishi talab etiladi.

So‘lim kecha. Oy kezar,

Yel – oydin tun qo‘shig‘i.

Jisming aro she’r yuzar –

Hayotingning bor-yo‘g‘i.

Yuqoridagi she’riy parchada Chori Avaz o‘zining badiiy mahoratini ishga solib, yelni oydin tunning qo‘shig‘i deb nomlamoqda. Tun hamda yel tabiiy tabiat hodisalari o‘rtasida mazmuniy yaqinlik mavjudligini har qanday kitobxon tezda fahmlashi mumkin. Yana bir she’rida shoir “Kunduz – Quyosh hidlayotgan gul” degan parafrazani ishlatadi. Ma’lumki quyosh zamin uzra ko‘tarilgan pallada kunduz – kun boshlanadi va quyoshning botishi mahali bu jarayon ham tugaydi. Shuning uchun kunduzni gulaga qiyoslash o‘quvchiga emotsional ta’sir o‘tkaza oladi. Aynan ikki hodisa bir vaqtda sodir bo‘layotganligi sababli ularning o‘rtasidagi mazmuniy aloqa ham yaqqol sezilib turadi.

Xulosa

Ko‘rinib turibdiki, har qanday ijodkor ham ko‘chimlar – badiiy tasvir vositalaridan o‘ziga xos uslub va yo‘nalishda foydalanishi mumkin. Ammo shoir Chori Avaz ijodida bunday birliklar har doim o‘z mutolaachisining e’tiborini tortib kelmoqda. Uning til birliklaridan foydalanish mahorati kishini o‘ziga jalb etadi. Bunday mahorat esa Alloh bergan iqtidor tufayli yuzaga chiqmoqda. Chori Avaz ana shunday iqtidori bilan siylangan suyuqlilardandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avazov Ch. Saylanma.-Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
  2. Avazov Ch. Tortilgan kamon.-Samarqand, 1990
  3. Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар. НД.-Т., 1997, 105-б.
  4. Бобоев Т., Бобоева З. Бадий санъатлар. ТДПУ, 2001.
  5. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. - 130 б.
  6. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Т., 1976, 13-б.
  7. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.64.
  8. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т: «ЎМЭ», 2002, 80-б.
  9. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р, Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси.Т:«Ўқитувчи», 1983, 236-б.
  10. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 16.
- [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)  
[www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)  
[www.journal-searchs.com](http://www.journal-searchs.com)